

6/2024,
noyabr-
dekabr
(№ 00074)



ORGANIK QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA KONSEPSIYASINI QO‘LLASH ORQALI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI TAMINLASH

Amirqulov Shuxrat Olimovich

QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, i.f.f.d., (PhD)

Email: amirqulovshuhrat64@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0009-0007-7011-9751>

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss6/609

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda logistika konsepsiyasini qo‘llashning ahamiyati, qoidalari va tartib tamoyillari ilmiy asoslangan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi iqtisodiy tahlil qilingan, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: organik qishloq xo‘jaligi, logistika konsepsiyasi, ananaviy konsepsiya, logistika qoidalari, tizimli yondashuv, ishlab chiqarish samaradorligi.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ЧЕРЕЗ ПРИМЕНЕНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЛОГИСТИКИ В ОРГАНИЧЕСКОМ СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

Амиркулов Шухрат Олимович

доцент кафедры «Инновационная экономика» КарИЭИ, доктор философии по экономике (PhD)

Аннотация

В статье научно обоснована важность применения понятия логистики при производстве органической сельскохозяйственной продукции в нашей стране, правила и принципы процедуры. Также был проведен экономический анализ динамики производства в сельском хозяйстве и показаны пути повышения экономической эффективности производства.

Ключевые слова: органическое сельское хозяйство, логистическая концепция, традиционная концепция, правила логистики, системный подход, эффективность производства.

ENSURING PRODUCTION EFFICIENCY THROUGH APPLICATION OF LOGISTICS CONCEPT IN ORGANIC FARMING

Amirkulov Shukhrat Olimovich

Associate Professor of the Department of Innovative Economics of KarIEI, Doctor of Philosophy in Economics (PhD)

Abstract

The article scientifically substantiates the importance of applying the concept of logistics in the production of organic agricultural products in our country, the rules and principles of the procedure.

An economic analysis of the dynamics of production in agriculture was also carried out and ways to increase the economic efficiency of production were shown.

Key words: organic agriculture, logistics concept, traditional concept, logistics rules, systems approach, production efficiency.

KIRISH

Bugungi kunda ekologiya va atrof muhit muhofazasi insoniyat oldida turgan eng muhim muammolardan biri sanaladi. Tabiatning iqlim o'zgarishlari global muammosi jamiyatda oziq-ovqat tavarlari taqchilligi va narxining keskin oshib ketishi kabi holatlarni keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari tuproq degaradatsiyaga uchramoqda va meliorativ holati yomonlashmoqda, hududlarda cho'llanish darajasi oshmoqda, natijada qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari hajmi yildan yilga kamayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev «Turkiyada 1 gektar yerdan 2 ming dollarlik, Misrda 8 ming dollarlik, Isroilda 12 ming dollarlik mahsulot yetishtiriladi. Yurtimizda esa bu ko'rsatkich 300 dollardan oshmayapti. Doim yagona standartdagi tovar yetkazib berish yo'lga qo'yilmagani sababli mahsulotlarimiz tashqi bozorda raqobatlasha olmayapti»¹, «... resurslarni tejaydigan innovatsion texnologiyalar asosida mahsulot tannarxini 30-35 foizga tushirish, suvni tejaydigan texnologiyalar joriy qilingan maydonlarni 1 million 500 ming gektarga yetkazish, sifatli va serhosil navlarni, zotdor chorva naslini ko'paytirishga, ekologik toza mahsulotlar yetishtirishga ustuvor ahamiyat beriladi»², «Asosiy maqsadimiz qishloq xo'jaligini ilmiy asoslangan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining eng yaxshi tajribalarini tatbiq qilgan holda rivojlantirish»³ deb takidlab o'tdi.

Hozirgi paytda mahalliy qishloq xo'jaligini inqirozdan chiqarish uchun an'anaviy ishlab chiqarish usullari va vositalar bilan bir qatorda milliy iqtisodiyotda logistika va marketing singari yangi boshqaruv vositalarining roli va ahamiyati oshib bormoqda.

Organik qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini resurslar bilan ta'minlash ular faoliyatiga sezilarli darajada iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, yetkazib berish, sotishdagi oqim jarayonlarini tavsiflashga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarni uchratish mumkin.

Agrologistika – bu mahsulotlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish sohasida moddiy oqimlarni boshqarishning fan va amaliyoti bo'lib, aholini va xalq xo'jaligini organik qishloq xo'jaligi xom ashyosi va uning qayta ishlangan mahsulotlari bilan to'liq qondirish maqsadida sohani zarur resurs bilan ta'minlash va tayyor mahsulotlarini bozorga chiqarish jarayonidan iboratdir.

Organik qishloq xo'jaligida logistika tushunchasidan foydalanish korxonalar va makrologistika tizimlarining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Har bir agrologistika markazida barcha zarur obektlar kross-doklar, savdo pavilonlari, mehmonxonalar, tijorat banklari hamda xizmatlar, saralash, qadoqlash, quritish, qayta ishlash, saqlash, tashish, yetkazib berish, bojxona rasmiylashtiruvi, karantin, oziq-ovqat xavfsizligini sertifikatlash, mutaxassislar maslahatlari va boshqalar jamlanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qishloq xo'jaligini 2020-2030 yillarda rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan yig'ilishdagi maruzasidan. 2019 yil 6-sentabr.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston qishloq xo'jalig xodimlariga bayram tabrigi. 09.12.2023 <https://president.uz/uz/lists/view/6918>

³ <https://sputniknews.uz/20240920/qishloq-xojaligi-mirziyoev-taqdimot-45755567.html>

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni qayd etish joizki, organik qishloq xo‘jaligida logistika konsepsiyasini qo‘llash, ishlab chiqarishda mahsulot tannarxini pasaytiradi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni istemolchilarga logistikaning 7R oltin qoidasi asosida o‘z vaqtida va sifatli yetkazib berish imkoniyati yaratiladi, natijada ishlab chiqaruvchi uchun ham istemolchi uchun ham iqtisodiy manfaat yuzaga keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Logistikaning nazariy jihatlarini D.Bauersoks, M.Linders, D.Uoters, K.Laynos, M.Djil-lingem⁴, Dj.R.Stok, D.M.Lambert⁵, A.M.Gadjinskogo⁶, E.V.Krikavskogo, M.A.Oklander, V.I.Sergeyev, N.I.Chuxray va boshqalar ishlarida yoritilgan.

Xususan, taniqli mutaxassis V.Kilxof (Germaniya) “Logistika - bu materiallar va tayyor mahsulotning korxonada va tashqarisida harakati tizimini muvofiqlashtirishdir. U moddiy oqimlarni tayyorlashdan boshlab uni jismoniy, axborot va tashkiliy ma‘nolarda sotishgacha boshqarish imkonini beradi”, deb hisoblaydi.

G.G Levkin qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilgan ekan “An’anaviy kontseptsiya "sotuvchi bozori" shartlariga, logistika kontseptsiya esa - "xaridor bozori" shartlariga mos keladi”⁷. deb qayd etadi.

V.L. Pilshikov qishloq xo‘jaligini o‘zga xos xususiyatlari haqida to‘xtalib “korxonalarining ta‘minot manbalaridan uzoqligi, ularning butun hudud bo‘ylab tarqalishi, avtomobil va temir yo‘llardan uzoqda joylashganligi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining tabiiy iqlim sharoitlariga bog‘liqligi hamda tabiiy iqlim sharoitlarining korxonada iqtisodiy faoliyat natijalariga ta‘sirini”⁸ni ko‘rsatib o‘tadi.

V.P.Moroz o‘z ilmiy tadqiqot ishida “Logistika xarajatlari va sarflari korxonaning faoliyat sohasining hajmiga bog‘liqligi va bu sanoatda umumiy ishlab chiqarish xarajatlarning 10-15% ini va qishloq xo‘jaligida esa 40% ni tashkil qilishi mumkin”⁹ligini qayd etadi.

M.Z.Xolmirzayeva “agar biz o‘zimizdan keyingi avlodlar hayotini asrashni, energiyani saqlashni, suv sifatini yaxshilashni, tabiiy biologik xilma xilliklarni asrashni, sof tabiiy mahsulotlarni iste‘mol qilishni xohlasak, organik qishloq xo‘jaligini dunyo amaliyotiga tadbiiq etishni yanada tezlashtirishimiz zarur”¹⁰ deb hisoblaydi.

F.Ahrorov “qiymat zanjirida daromadning katta qismi savdo tarmog‘iga keladigan intensiv qishloq xo‘jaligidan farqli o‘laroq, organik dehqonchilikdan olingan daromad dehqonlar foydasiga ko‘proq taqsimlanadi”¹¹deb etirof etadi.

⁴ Лайнос К., Джиллингем М. Управление закупочной деятельностью и цепью поставок. Пер. с англ. -М.: ИНФРА-М, 2005. 798 с

⁵ Сток Дж. Р., Ламберт Д.М. Стратегическое управление: Учебник. Пер. с англ. В.И. Сергеева. -М.: ИНФРА-М, 2005. 797 с.

⁶ Гаджинский А.М. Логистика / А.М. Гаджинский. М.: Дашков и Ко 2013. 419 с. / Режим доступа: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=135044>.

⁷ Левкин Г.Г. Логистика в АПК : Учебное пособие. 2-е изд. / Г.Г. Левкин.— М.: Берлин: Директ-Медиа, 2014. — 245 с.

⁸ Пильщиков В.Л. Сельскохозяйственные предприятия в системе логистики / В.Л. Пильщиков // Международный научный журнал. №3. М.: Изд-во «Спектр», 2009. С. 54-60

⁹ Мороз В.П. Основы разработки логистики технического сервиса в сельскохозяйственных предприятиях / В.П. Мороз, М.В. Кузьмин // Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. М. 2012. С. 70-76.

¹⁰ Холмирзаева М.З. Органик қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш “Talqin va tadqiqotlar” Respublika ilmiy-uslubiy jurnali №7. file:///C:/Users/User/Downloads/organik-ishlo-h-zhaligini-davlat-tomonidan-llab-uvvatlash%20(2).pdf

¹¹ Ахроров Ф. Барқарор қишлоқ хўжалигини ривожлантириш: Ўзбекистонда экологик деҳқончилик ва органик маҳсулотлар етиштиришга ўтиш. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, mart. www.e-itt.uz.

Xorijiy va mahalliy olimlarning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidan organik ishlab chiqarishga o‘tish va bu ishlab chiqarishda logistika konsepsiyasini qo‘llashning maqsadga muvofiqligi va iqtisodiy jihatdan samarador ekanligi qayd etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Qishloq xo‘jaligi milliy iqtisodiyotning drayveri hisoblanadi va aholining oziq ovqatga, sanoatni esa xom ashyoga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Agrosanoat kompleksidagi biologik, texnik va iqtisodiy vazifalarni yechishning tizimli yondashuvi o‘simlikchilik va chorvachilikni kompleks rivojlantirishni taqozo etadi. Bu qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tarmog‘ining ko‘plab xilma-xil va doimiy ravishda o‘zaro bog‘langan hamda va o‘zaro ta‘sir qiluvchi jonli va jonsiz, mikro va makrotuzilmalar bilan bog‘liqligini bildiradi. Ushbu elementlarni yagona tizimga birlashtirish, tizimning alohida qismida elementlarning o‘zaro bog‘liqligi, birgalikdagi harakati qo‘shimcha sinergetik samaraning paydo bo‘lishiga olib keladi.

1-jadval

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida o‘simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi tahlili¹²

T/r	Ko‘rsatkichlar	o‘/b	2019	2020	2021	2022	2023	2023 yilda 2019 yilga nisb.o‘zg. %
1	Aholi soni	m.kishi	33255,5	33905,2	34558,9	35271,3	36024,9	108,3
2	Don	m.tonna	7 437,80	7 636,00	7 634,60	7 990,50	8 426,60	113,3
		sh.j.dan aholi jon boshiga	0,22	0,23	0,22	0,23	0,23	104,6
3	Paxta	m.tonna	2 691,70	3 064,00	3 372,90	3 500,70	3 710,30	137,8
		sh.j.dan aholi jon boshiga	0,08	0,09	0,10	0,10	0,10	127,2
4	Kartoshka	m.tonna	3 089,70	3 143,80	3 285,60	3 443,20	3 574,10	115,7
		sh.j.dan aholi jon boshiga	0,09	0,09	0,10	0,10	0,10	106,8
5	Savzavot	m.tonna	10 215,1	10 431,4	10 850,2	11 162,9	11 553,7	113,1
		sh.j.dan aholi jon boshiga	0,31	0,31	0,31	0,32	0,32	104,4
6	Poliz	m.tonna	2 068,7	2 134,4	2 285,3	2 420,7	2 553,5	123,4
		sh.j.dan aholi jon boshiga	0,06	0,06	0,07	0,07	0,07	113,9
7	Meva	m.tonna	2 752,7	2 812,6	2 852,6	2 999,3	3 121,7	113,4
		sh.j.dan aholi jon boshiga	0,08	0,08	0,08	0,09	0,09	104,7
8	Uzum	m.tonna	1 603,3	1 606,9	1 695,3	1 760,6	1 737,6	108,4
		sh.j.dan aholi jon boshiga	0,05	0,05	0,05	0,05	0,05	100,0

1-jadval ma'lumotlarining ko‘rsatishicha, 2019-2023 yillarni o‘z ichiga olgan tahlil davrida o‘simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasida paxtachilikda 137,8 %, polizchilikda 123,4 % donchilikda 113,3 %, mevada 113,4 5 sabzavot 113,1 % o‘sish kuzatilib, ijobiy o‘zgarishlar yuz berganini qayd etish mumkin. Biroq, o‘simlikchilik mahsulotlarini aholi

¹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

jon boshiga nisbatan tahlil qilib ko'rganimizda, tahlil davrida mamlakatimizda aholining o'rtacha o'sish darajasi 108,3 % ni tashkil etgani holda, don, kartoshka, sabzavot, meva va uzum ishlab chiqarish surati aholining o'sish suratidan ortda qolganligini jadval malumotlari ko'rsatib turibdi. Tahlillar qishloq xo'jaligining o'simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish surati, aholining o'sish suratidan ortda qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishini taminlash o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarini yagona tizim sifatida uyg'un holda ko'rishni talab etadi. Oddiy haqiqat o'simlikchilikda almashlab ekishni joriy qilmasdan turib dehqonchilikni tashkil etib bo'lmaydi, almashlab ekish o'z navbatida chorva mollari uchun ozuqa yetishtirishga olib keladi, ozuqa ekinlarini mavjudligi chorvachilikni tashkil etishga, chorvachilik esa o'z navbatida dala maydonlarini organik go'ng bilan taminlashga olib keladi. Shuning uchun ham chorvachilik qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblanadi va amaliyotda bu tarmoqdan olingan daromad qishloq xo'jaligi tarmog'idan olingan daromadning teng yarmini tashkil etadi.

2-jadval

O'zbekiston qishloq xo'jaligida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi tahlili¹³

T/r	Ko'rsatkichlar	o'/b	Yillar					2023 yilda 2019 yilga nisb.o'zg. %
			2019	2020	2021	2022	2023	
1	Aholi soni	m.kishi	33255,5	33905,2	34558,9	35271,3	36024,9	108,3
2	Go'sht	m.tonna	2 473,60	2 519,60	2 635,10	2 725,90	2 833,30	114,5
		sh.j.dan aholi jon boshiga	0,07	0,07	0,08	0,08	0,08	105,7
2	Sut	m.tonna	10 714,3	10 976,9	11 274,2	11 627,2	11 968,7	111,7
		sh.j.dan aholi jon boshiga	0,32	0,32	0,33	0,33	0,33	103,1
4.	Tuxum	mln.dona	7 771,2	7 781,2	7 788,4	8 129,2	8 487,5	109,2
		sh.j.dan aholi jon boshiga	0,23	0,23	0,23	0,23	0,24	100,8
5	Asal	tonna	13 001,7	13 357,8	14 066,9	14 700,4	15 620,6	120,1
		sh.j.dan aholi jon boshiga	0,39	0,39	0,41	0,42	0,43	110,9
6	Jun	tonna	35 115	35 422	36 345	37 307	38 639	110,0
		sh.j.dan aholi jon boshiga	1,06	1,04	1,05	1,06	1,07	101,6
7	Qorako'l teri	m.dona	1 150,7	1 152,1	1 252,4	1 287,6	1 321,1	114,8
		sh.j.dan aholi jon boshiga	0,03	0,03	0,04	0,04	0,04	106,0
8	Pilla	tonna	21 374,1	20 941,9	22 769,9	24 300,2	25 885,8	121,1
		sh.j.dan aholi jon boshiga	0,64	0,62	0,66	0,69	0,72	111,8

2-jadval malumotlarining tahlili mamlakatda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasida ijobiy siljishlar kuzatilganini ko'rsatmoqda, biroq aholi jon boshiga chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tahlil qilganimizda, aholining o'sishiga nisbatan go'sht, sut, tuxum, jun, qorako'l teri kabi mahsulotlar ishlab chiqarish darajasining pastligini qayd etish

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi malumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mumkin. Bu tahlillar mamlakat qishloq xo'jaligida yangi ishlab chiqarish usullarini tadbiq etish orqali aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga xususan organik mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Mahalliy qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'nalishlaridan biri logistika kontsepsiyasidan foydalanish hisoblanadi, ya'ni, sobiq Ittifoq davrida ham qishloq xo'jaligining mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olib logistik bilimlaridan foydalangan holda ishlab chiqarishning raqobatbardosh modelini yaratish hisobiga agrar sohaning barqaror rivojlanishi taminlangan.

Logistika iqtisodiy sohada tovarlarni ishlab chiqarish, sotish va xarid qilish xarajatlarini kamaytirish vositasidir. Ishlab chiqarish va savdoda mahsulotlarni taqsimlash jarayonlarini takomillashtirish, zaxiralar va xarajatlarni optimallashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatishning yuqori sifatini ta'minlashda logistika kontsepsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Organik qishloq xo'jaligida logistika konsepsiyasini qo'llashda uning o'ziga xos xususiyatlarini etiborga olish muhimdir. Logistikaning maqsadi kerakli mahsulot yetkazib berish, kerakli vaqtda, kerakli joyda, eng kam xarajatlar bilan, kerakli sifatda, kerakli miqdorda va iste'molchiga kerakli moddiy oqimlarni yetkazib berish kabi umumiy ma'noda 7 ta qoidada aks ettirilgan.

Logistika konsepsiyasi bu - moddiy oqimlarni boshqarishni optimallashtirish orqali korxonalar yoki korxonalar guruhining iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish borasidagi qarashlar tizimidir.

Organik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida logistika konsepsiyasini qo'llashda ISO-9001 bo'yicha taminot zanjiriga asoslangan va zamonaviy agrologistikaga asoslangan yondashuvlaridan foydalaniladi.

ISO-9001 bo'yicha taminot zanjiriga asoslangan logistika yondashuvda moddiy oqimlar harakati taminotchi – tashkilot – istemolchi logistik zanjiridan iborat bo'lib, bunda vositachilar yoki boshqa oqim elementlari ishtirok etmaydi.

Zamonaviy logistikaga asoslangan yondashuvda esa moddiy oqimlar yetkazib beruvchilar – taminotchilar – ishlab chiqaruvchilar – distribusiyaga (bu mahsulotni ishlab chiqaruvchilardan to so'nggi iste'molchilargacha yetkazishga yo'naltirilgan kompleks logistik faoliyat) istemolchilar bozorigacha harakat qilsa, axborot va moliyaviy oqimlar yuqoridagi zanjirga gorizontol holatda to'g'ri va qayta harakatni yuzaga keltiradi.

Organik qishloq xo'jaligida logistika konsepsiyasini tizimli yondashuv asosida amalga oshirish korxonaning barcha funksional bo'limlari yoki ta'minot zanjiri ishtirokchilari harakatlarining birligi va izchilligini ta'minlaydi hamda logistika tizimini rivojlantirish kerak bo'lgan yo'nalishni belgilaydi.

Rejali iqtisodiyot davrida ham qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida logistika konsepsiyasini qo'llashga harakat qilingan. 1982 yilda qabul qilingan “Oziq ovqat” dasturida oziq ovqat muammosini tizimli hal qilishning kompleks tashkiliy, siyosiy, iqtisodiy, moddiy-texnika choralari ko'rsatib o'tilgan edi. Bunda qishloq xo'jaligining moddiy texnika resurs potensialidan samarali foydalanish, tarmoqlararo tengsizlikni bartaraf etish, harakatdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchidan istemolchigacha muvozanatini taminlash, qishloq xo'jaligining butun tizim sifatida rivojlanishiga to'siq bo'layotgan, to'xtab qolgan, tizimostini rivojlanishini tezlashtirish masalalariga asosiy etibor qaratilgan edi.

Dasturda qishloq xo'jaligi mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash maqsadida ularni zamonaviy texnologiyalar asosida kompleks qayta ishlash bo'yicha chora-tadbirlar

belgilangan. Garchi o'sha paytda logistika haqida hech narsa malum bo'lmagan bo'lsada, SSSR Oziq-ovqat dasturini amalga oshirishda to'liq logistika yondashuvlari va logistika vositalari, usullaridan foydalanish ko'zda tutilgan, biroq boshqaruv ma'muriy buyruq bilan amalga oshirilgan.

Bu ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotining umumiy kamchiligi - qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy manfaatlari va iqtisodiy qonunlarga e'tiborsizlik bilan yondashilganligidadir.

Zamonaviy sharoitda aholining organik qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabi oshib bormoqda. Ishlab chiqarilayotgan organik mahsulotlarning tannarxini pasaytirish va sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu sohaga agrologistika konsepsiyasini tadbicq etishdan iborat bo'lib, buning uchun quyidagi asosiy qoidalarga etibor qaratish zarur deb hisoblaymiz:

1-qoida. Makro va mikro darajada tizimlilik tamoyilini taminlashdagi yondashuv, bunda asosiy manbadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan umumiy materiallar oqimi ko'rsatkichlarini yaxshilash orqali maksimal samaraga erishish mumkin.

2-qoida. Butun logistika zanjirida logistika xarajatlarini hisobga olish, buning mohiyati korxonaning umumiy xarajatlari tarkibidan logistika xarajatlarini ajratish, hisobga olish va o'lchashda namoyon bo'ladi.

3-qoida. Zamonaviy mehnat sharoitlarini yaratish. Qishloq xo'jaligi korxonasida logistika kontsepsiyasidan foydalanish insonni boshqa omillar va resurslar orasida birinchi o'ringa qo'yadi, shuning uchun mehnatni tashkil etishda yangicha yondashuvlarga asoslangan personalni boshqarish, unga haq to'lash, malaka oshirishni rag'batlantirish, shuningdek, har bir xodimning xarajatlarni kamaytirishga qo'shgan shaxsiy hissasini baholash muhim o'rin egallaydi

4-qoida. Bozorda o'z o'rnini egallash va mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasini oshirish. Korxonani bozorda o'z o'rnini egallashning uchta yo'li mavjud: mahsulot sifatini yaxshilash, yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish va logistika xizmati darajasini oshirish.

5-qoida. Talabning noaniqlik sharoitida logistika tizimlarining ekologiya (atrof-muhit)ga moslashish imkoniyatlari. Korxonalarining moslashuv qobiliyati bozorda barqaror pozitsiyani egallashning muhim omilidir. Logistika kontsepsiyasini amalga oshiruvchi organik qishloq xo'jaligi korxonasi asta-sekin o'z-o'zini boshqarishga o'tadi. Bu shuni anglatadiki, korxonalar bozor konyunkturasi o'zgarishlariga tezda moslashadi, bunday korxonalar joriy kiruvchi, ichki va chiqish oqimlari parametrlarini, omborlardagi zahiralarni darajasini tezda qayta tiklaydi va o'zgartiradi Bu bozor talablariga tezda moslashishga va foyda olishga imkon beradi.

6-qoida. Universal texnologik va ko'tarma transport jihozlari ishlab chiqarishni tashkil etish. Mahsulotlarni omborxonada saqlash va tashish ishlarini samarali tashkil etish uchun muayyan sharoitlarda ishlaydigan tegishli uskunalarni talab etiladi.

7-qoida. Iqtisodiy murosaga asoslangan qarorlar qabul qilish. Bu logistika zanjiri bo'g'inlaridan biridagi xarajatlarni kamayishi foydani oshirishga yoki umumiy xarajatlarni kamaytirish butun korxonaga yoki ta'minot zanjiri bo'ylab o'sish degan ma'noni anglatadi. Bunday yondashuvning mohiyati, transport xarajatlarining oshishi zahiralarni boshqarish va saqlash xarajatlarining kamayishiga olib keladi va hokazo.

Korxonalar agrologistikasining asosiy maqsadi mahsulotlarni kerakli miqdor va sifatda ishlab chiqarish, o'z vaqtida yetkazib berish, sotish va sotishdan keyingi xizmatlar,

shuningdek, axborotni tashish, qabul qilish, qayta ishlash va uzatishda minimal xarajatlar bilan yetkazib berishdan iboratdir.

Agrologistikaning asosiy maqsadi quyidagi kichik maqsadlarga bo'lingan:

korxonada amalga oshiriladigan xarajatlar va logistika operatsiyalari hajmini hisobga olish tizimini yaratish imkonini beradigan samarali nazorat tizimini yaratish;

qishloq xo'jaligi korxonasida moddiy-texnik ta'minot bo'limi tashkil etilganda, korxonaning tashkiliy tuzilmasini qayta tashkil etish;

qishloq xo'jaligini o'ziga xos xususiyatlarini va yetkazib berish zanjiridagi o'rnini hisobga olgan holda korxonada logistika boshqaruvini tashkil etish va boshqalar.

Organik qishloq xo'jaligida logistika konsepsiyasini qo'llashda: ortiqcha zaxiralarni rad etish;; ishlab chiqarish, transport va ombor operatsiyalarini bajarish vaqtini tejash;; mijoz buyurtmasi mavjud bo'lmagan mahsulot ishlab chiqarishni rad etish;; qishloq xo'jaligi texnikalari va asbob uskunalarining ishlamay qolishini bartaraf etish; ishlab chiqarish, tashish va sotishdagi majburiy yo'qotishlar (kamchiliklar)ni bartaraf etish kabilarga alohida ahamiyat qaratiladi.

XULOSA

1.Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab oshib borayotgan bir sharoitda qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning birdan bir yo'li bu ishlab chiqarishga logistika tizimini va konsepsiyasini qo'llashdan iboratdir.

2.Logistika tizimi bu ishlab chiqarishni yaxlitligini, butunligini taminlasa, logistika konsepsiyasi xarajatlarni tejalishiga olib keladi, natijada korxonada ishlab chiqarish samaradorligi taminlanadi, bu esa o'z navbatida korxonada ishlab chiqarish samaradorligini taminlanishi, aholining arzon va sifatli organik qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirilishiga olib keladi.

3.Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi ko'p jihatdan uning texnologik resurslari bilan, optimal oqim esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning texnologik jarayoniga material oqimining kirish darajasi bilan belgilanadi.

4.Anaviy ishlab chiqarishda mahsulotlarni ishlab chiqarish, savdo omboriga chiqarish va tayyor zahiralarni jamlash reja asosida amalga oshiriladi. Bunday an'anaviy yondashuv ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotida davrida qo'llanilgan.

5.Hozirgi talabni oldindan aytib bo'lmaydigan sharoitda mahsulot ishlab chiqarish, ombordagi saqlash va istemolchiga yetkazib berish jarayonlari buyurtma asosida amalga oshiriladi. Bunda katta zaxiralarni saqlash foydasiz bo'lib qoladi va shu bilan birga yangi buyurtmalarni o'tkazib yuborib bo'lmaydi. Shuning uchun, korxonaning atrof-muhit o'zgarishlariga tez moslashishi, uning quyi tizimlarining (ta'minot, ishlab chiqarish, sotish), kiruvchi va chiquvchi materialning hajmi va tarkibiy oqimlarining tez o'zgarishi bilan ta'minlanadi. Bularning barchasi logistika konsepsiyasidan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

FOYDALFNILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qishloq xo'jaligini 2020-2030 yillarda rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan yig'ilishdagi maruzasidan. 2019 yil 6-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston qishloq xo‘jalig xodimlariga bayram tabrigi. 09.12.2023 <https://president.uz/uz/lists/view/6918>
3. <https://sputniknews.uz/20240920/qishloq-xoajaligi-mirziyoev-taqdimot-45755567.html>
4. Лайнос К., Джиллингем М. Управление закупочной деятельностью и цепью поставок. Пер. с англ. -М.: ИНФРА-М, 2005. 798 с
5. Сток Дж. Р., Ламберт Д.М. Стратегическое управление: Учебник. Пер. с англ. В.И. Сергеева. -М.: ИНФРА-М, 2005. 797 с.
6. Гаджинский А.М. Логистика / А.М. Гаджинский. М.: Дашков и Ко 2013. 419 с. / Режим доступа: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=135044>.
7. Левкин Г.Г. Логистика в АПК : Учебное пособие. 2-е изд. / Г.Г. Левкин.— М.: Берлин: Директ-Медиа, 2014. — 245 с.
8. Пильщиков В.Л. Сельскохозяйственные предприятия в системе логистики / В.Л. Пильщиков // Международный научный журнал. №3. М.: Изд-во «Спектр», 2009. С. 54-60
9. Мороз В.П. Основы разработки логистики технического сервиса в сельскохозяйственных предприятиях / В.П. Мороз, М.В. Кузьмин // Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. М. 2012. С. 70-76.
10. Холмирзаева М.З. Органик қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш “Talqin va tadqiqotlar” Respublika ilmiy-uslubiy jurnali №7. [file:///C:/Users/User/Downloads/organik-ishlo-h-zhaligini-davlat-tomonidan-llab-uvvatlash%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/organik-ishlo-h-zhaligini-davlat-tomonidan-llab-uvvatlash%20(2).pdf)
11. Аҳроров Ф. Барқарор қишлоқ хўжалигини ривожлантириш: Ўзбекистонда экологик деҳқончилик ва органик маҳсулотлар етиштиришга ўтиш. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, mart. www.e-itt.uz.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi malumotlari.